

## IQON SHEVASIDA SO‘Z YASALISH XUSUSIYATLARI

Qurbanova Asal O‘tkirovna

Qarshi xalqaro universiteti filologiya va tillarni o‘qitish (o‘zbek tili) yo‘nalishi 1-kurs talabasi.

Murojat uchun Tel: (77) 314-21-17.

Gmail: [qurbanovaasal1979@gmail.com](mailto:qurbanovaasal1979@gmail.com)

<https://doi.org/10.5281/zenodo.14879383>

*Annotatsiya. Mazkur maqolada shimoliy o‘zbek o‘g‘uz guruhiiga kiruvchi Iqon shevasining so‘z yasalish tizimi, ayniqsa, -chi affiksining funksional xususiyatlari atroflicha tahlil qilinadi. Ushbu affiksning lug‘aviy va grammatick jihatdan qanday o‘zgarishlarga uchrashi, turli kontekstlarda qo‘llanishi va semantik yuklamalari yoritiladi. Shuningdek, maqolada -chi affiksining boshqa turkiy tillardagi o‘xshashliklari va farqlari ham tahlil qilinib, uning Iqon shevasidagi o‘ziga xos xususiyatlari aniqlanadi. Tadqiqot natijalari sheva leksikasi va grammatiskasining shakllanishi hamda rivojlanish tendensiyalarini tushunishga hissa qo‘sadi.*

*Kalit so‘zlar: adabiy til, sheva, Iqon shevasi, so‘z yasalishi, yasovchi asos, yasovchi vositalar, affiks, yasama so‘z, morfologiya, so‘z yasalish modellari, derivatsiya, funksional xususiyatlar, grammatick struktura,*

## FEATURES OF WORD FORMATION IN THE IQAN DIALECT

*Abstract. This article provides a detailed analysis of the word formation system of the Iqan dialect, which is part of the Northern Uzbek Oghuz group, especially the functional features of the -chi affix. The lexical and grammatical changes of this affix, its use in different contexts, and its semantic load are discussed. The article also analyzes the similarities and differences of the -chi affix in other Turkic languages, and identifies its specific features in the Iqan dialect. The results of the research contribute to understanding the formation and development trends of the dialect's lexicon and grammar. semantik tahlil, turkiy tillar, o‘zbek dialektologiyasi, leksik o‘zgarishlar, tarixiy-qiyosiy tahlil, fonetik o‘zgarishlar.*

*Keywords:* literary language, dialect, Iqon dialect, word formation, word-forming basis, word-forming means, affix, coined word, morphology, word-formation models, derivation, functional features, grammatical structure, semantic analysis, Turkic languages, Uzbek dialectology, lexical changes, historical-comparative analysis, phonetic changes.

## ОСОБЕННОСТИ СЛОВООБРАЗОВАНИЯ В ДИАЛЕКТЕ ИКАН

*Аннотация. В статье подробно анализируется система словообразования диалекта Икан, входящего в североузбекскую огузскую группу, в частности,*

функциональные особенности аффикса -чи. Рассматриваются лексические и грамматические изменения этого аффикса, его использование в разных контекстах, его семантическая нагрузка. В статье также анализируются сходства и различия аффикса -чи в других тюркских языках, выявляются его специфические особенности в диалекте Икан. Результаты исследования способствуют пониманию тенденций формирования и развития лексики и грамматики диалекта.

**Ключевые слова:** литературный язык, диалект, иконский диалект, словообразование, словообразовательная основа, словообразовательные средства, аффикс, вымыщенное слово, морфология, словообразовательные модели, деривация, функциональные признаки, грамматическая структура, семантический анализ, тюркские языки, узбекская диалектология, лексические изменения, историко-сравнительный анализ, фонетические изменения.

### Kirish

O‘zbek tilshunosligida dialekt va shevalarning tadqiq etilishi til taraqqiyoti va hududiy xususiyatlarini aniqlashda muhim ahamiyat kasb etadi. O‘zbek tilining shimoliy lahjasi tarkibida o‘g‘uz guruhiga mansub Iqon shevasi alohida o‘ringa ega bo‘lib, u fonetik, leksik va grammatik jihatdan o‘ziga xos xususiyatlarga ega.

Ushbu maqolada Iqon shevasida so‘z yasalish jarayoni, xususan, -chi affiksining funksional xususiyatlari tahlil qilinadi. So‘z yasalishi til tizimining muhim bo‘g‘inlaridan biri bo‘lib, yangi leksik birliklarni shakllantirishda muhim rol o‘ynaydi.

Iqon shevasida - chi affiksi orqali hosil bo‘ladigan so‘zlarning tuzilishi, ularning adabiy til va boshqa turkiy tillardagi o‘xshash hamda farqli jihatlari tadqiq etilishi zarur bo‘lgan muhim masalalardan biridir. Ushbu maqolada Iqon shevasidagi so‘z yasalish modellari, yasovchi asos va yasovchi vositalarning tahlili orqali - chi affiksining semantik va grammatik funksiyalari yoritiladi.

Tadqiqotning dolzarbligi shundan iboratki, dialektal tizimlarni o‘rganish nafaqat o‘zbek tilining hududiy xususiyatlarini aniqlashga yordam beradi, balki uning umumturkiy tillar bilan bog‘liqligini o‘rganish, shevalar va adabiy til o‘rtasidagi o‘zaro aloqalarni tushunishga ham xizmat qiladi. Shu bois, maqolada - chi affiksining Iqon shevasida qo‘llanish xususiyatlari keng ko‘lamda tahlil qilinadi.

### Asosiy qism

O‘zbek tili so‘z yasalishi masalalari tadqiqi dialektlarni or‘ganish bilan uzviy bog‘liqlikda kechadi, sababi o‘zbek tili so‘z yasalishida yechimini topmagan ayrim masalalarni sheva ma’lumotlari asosida aniqlash mumkin. Shimoliy o‘zbek shevalari guruhiga kiruvchi Iqon shevasida ham adabiy til va boshqa shevalar kabi barcha so‘z turkumlarida so‘z yasash imkoniyati mavjud. Affiksatsiya usulida so‘z yasash hozirgi o‘zbek tilida yasalishning eng faol, eng mahsuldor usullaridan biri hisoblangani kabi mazkur shevada ham affikslar yordamida so‘z yasash juda faol. Shevada so‘z yasalishi o‘zbek adabiy tili bilan umumiylukka ega bo‘lgani holda, o‘ziga xos o‘zgachaliklarga ham ega. Ushbu ishimizda shevada shaxs oti yasovchi -chi affiksining imkoniyatlari xususida fikr yuritishga harakat qilamiz. Iqon shevasiasda -či//či juda faol, mahsuldor affiks bo‘lib, polisemantik xususiyatga ega. Masalan: ma:l-či, qoj-či, jilqi-či, suv-či, sü:t-či, dala-či, tä:girmän-či, tünkä-či, tort-či, salat-či, palav-či, siniq-či, käpčik-či, sunnaj- či, paxsa-či, o:čaq- či, qiziq-či, pitim-či, čaqim-či, tö:mät-či, kino-či, kämpjütir-či va hokazo. Shevada ham – –či//či affiksi orqali yasalgan shaxs oti o‘zbek

tilining boshqa shevalari va adabiy tildagi kabi otning xilma-xil ma’nolarini hosil qiladi hamda bevosita yasalma asosning ma’nosini bilan bog‘lanadi. Jumladan:

- shaxsning asosdan anglashilgan narsa bilan shug‘ullanishini:  
suvaqči, suvči, sü:tči, tünkäči, ba:līqči, taqači, xija:lči, kö:nči;
- ish-harakatni asosdan anglashilgan narsa vositasida bajarishini:  
käpčikči, sunnajči, kämpjütirči, kranči, traktirči, kämbajči, ketmänči;
- asosdan anglashilgan narsani yaratish, yasash bilan shug‘ullanishini o:čaqči, sandiqči, tilla:či, piča:qči, beşikči;
- shaxsning kasb-hunar, turli mutaxassisliklar bo‘yicha mashg‘ul bo‘lishini: ma:lči, qo:jči, jilqiči, su:vči, sü:tči, oqtu:či, samsači,  
qa:yunči, šaşlikči, räsmči, siniqči kabi;
- shaxsning biror belgi, holat, xususiyati bilan ajralib turishini:  
kä:kči, a:rasči, tö:mätči, ča:qimči, pitimči, mäsqa:lči (kishilardagi turli xususiyatlarni (salbiy) yoki tug‘ma nuqsonlarni kamsitib, laqab qo‘yuvchi) kabi boshqa juda ko‘p ma’nolarni anglatgan otlar yasaydi. Shu bilan birga, o‘zbek tilining boshqa shevalari va adabiy tilda shaxs oti yasovchi qo‘sishimchalar: -dosh, -gar, (-kar), -kor, -bon, -dor, -shunos, -furush, -boz, -xo‘r, -paz, -soz, -do‘z, -kash, -xon, -go‘y, -navis, -parast affikslari orqali hosil qilinsa

[Sapayev, 2009: 49], mazkur shevada ushbu affikslarning so‘z yasash darajasi juda past, hatto, -navis, -shunos, -soz, -xon, -dor, -parvar, -go‘y kabi yasovchi (affiksoid)lar umuman, qo‘llanmaydi.

Shevada -či//či affiksi bilan yasalgan shaxs otlari haqida gap borar ekan, quyidagi holatlarni ham ta’kidlab o‘tish lozim, ya’ni tojik tilidan o‘zlashgan -paz, -do‘z, -soz, -kash, -furush kabi yasovchilar o‘rnida ham -či//či affiksi qo‘llanadi. Masalan: – kash (tojikcha kashidan – «tortmoq» fe’lidan). Shaxsning yasash asosi ifodalagan narsa bilan shug‘ullanishini, ish-harakatning shu orqali bajarilishini anglatuvchi ot yasalsa: suratkash – rasmči, paxsakash – paxsači kabi. -paz (tojikcha puxtan «pishirmoq» fe’lidan). Taom nomlarini bildiruvchi so‘zlarga qo‘shilib, shaxsning shu ovqatni pishirish, tayyorlash bilan shug‘ullanishini anglatgan ot yasaydi: oshpaz, kabobpaz, somsapaz kabi, ammo mazkur shevada -paz affiksi o‘rnida ham -chi affiksi qo‘llanib, oshpaz – pala:vči (palovchi to‘y, xudoy, xatim kabi katta yig‘inlarda osh tayyorlashni kasb qilgan kishi), kabob-paz – shashlikči, somsa-paz – samsači, pishiriqlar tayyorlovchi-tortči, salatlar tayyorlovchi – salatči tarzida ifodalanadi. Shaxsning kasb-hunarini bildiradigan ot yasovchi –gar (-kar)affiksi o‘rnida ham –či affiksi qo‘llanib, zar-gar leksemasi o‘rnida tilla:či so‘zi qo‘llanadi.–soz (tojikcha soxtan – «yasamoq» fe’lidan). Yasash asosi ifodalagan narsani yasash, sozlash, tuzatish bilan shug‘ullanuvchi shaxs oti yasaydi: soatsoz – sä: ätči kabi. – do‘z (tojikcha do‘xtan – «tikmoq» fe’lidan). Yasash asosi anglatgan narsani tikish, yaratish bilan shug‘ullanuvchi shaxs oti yasaydi: mahsido‘z – mä:ssiči, etikdo‘z – ö:tikči, kashtado‘z – xija:lči kabi. – kash (tojikcha kashidan – «tortmoq» fe’lidan). Shaxsning asosdan anglashilgan narsa bilan shug‘ullanishini, ish-harakatning shu orqali bajarilishini anglatadigan ot yasaydi: suratkash – rä:smči, paxsakash – pa:xači kabi. – furush (tojikcha furo‘xtan – «sotmoq» fe’lidan) affiksoid asosida ifodalangan narsani sotish bilan shug‘ullanuvchi shaxs oti yasaydi: nosfurush – na:sbajči, pistafurush – pistäči, terifurush – tä:riči kabi. Demak, shevalarda, xususan, Iqon shevasida o‘zbek adabiy tilidagi so‘z yasovchilarning barchasi ham funksional emas, balki aksariyat so‘z yasovchilarning funksiyasini ham –či//či affiksi bajarishi mumkin. Bunday oppozitiv variantlar boshqa asos va affikslarda ham qayd qilinadi. Ular to‘g‘risida keyingi ishlarda fikr yuritiladi.

### Xulosa

Mazkur maqlolada Iqon shevasida so‘z yasalish jarayoni, xususan, – chi affiksining funksional xususiyatlari tahlil qilindi. Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatdiki, – chi affiksi Iqon shevasida asosan kasb-hunar, nisbat va belgi bildiruvchi yasama so‘zlar hosil qilishda faol qo‘llanadi. Ushbu affiksning adabiy til va boshqa turkiy tillardagi qo‘llanilish xususiyatlari bilan qiyosiy tahlili uning Iqon shevasiga xos o‘ziga xosliklarini aniqlash imkonini berdi.

Tadqiqot davomida – chi affiksining semantik va grammatik jihatdan keng qamrovli ekanligi aniqlandi. U faqatgina so‘z yasash funksiyasini bajarib qolmay, balki ayrim holatlarda nutq davomida ma’noviy kuchaytiruvchi yoki ta’kidlovchi vazifani ham o’taydi.

Shuningdek, bu affiksning Iqon shevasidagi qo‘llanilishi adabiy tilga nisbatan ba’zi farqlarga ega bo‘lib, bu shevaning o‘ziga xos morfologik tizimini belgilaydi. Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatadiki, Iqon shevasida so‘z yasalish tizimi mintaqaviy xususiyatlarni o‘zida aks ettirgan bo‘lib, u adabiy til bilan o‘zaro bog‘liqlikda rivojlangan. Kelgusida ushbu shevaning boshqa so‘z yasovchi affikslari va ularning qo‘llanilishi bo‘yicha kengroq tadqiqotlar olib borish, uning tarixiy taraqqiyoti va umumturkiy til tizimidagi o‘rnini aniqlash muhim ilmiy ahamiyatga ega bo‘ladi.

#### **REFERENCES**

1. Sapayev Q. Hozirgi o‘zbek tili. – T.: Nizomiy nomidagi TDPU, 2009. – B. 48-49.
2. Sayfullayeva R., Mengliyev B, Boqiyeva G. va b. Hozirgi o‘zbek adabiy tili. – Toshkent: Fan va texnologiyalar, 2010.